

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JINSIY ERKINLIKKA QARSHI JINOYATLARNING OLDINI OLISHDAGI SAMARALI FAOLIYATI

Norboyev Oybek Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

Kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu makolada profilaktika inspektorining jinsiy yerkinlikka qarshi jinoyatlar profilaktikasi faoliyatining tushunchasi, asosiy xususiyatlari, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlil qilinib, takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bundan tashkari, profilaktika inspektorining jinsiy yerkinlikka qarshi jinoyatlar profilaktikasiga qaratilgan faoliyatining amaliy tahlili va ularga nisbatan rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar, shuningdek hozirgi kunda jinsiy yerkinlikka qarshi jinoyatlar yuzasidan profilaktika inspektori faoliyatidagi mavjud muammo va kamchiliklar, hamda ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf yetish buyicha bir qator takliflar hamda horij tajribalari o'rganib chiqilib ularni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida tahlili va bir qator taklif va mulohazalar berib o'tilgan. Yuqorida keltirilgan o'tilgan jihatlardan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlari yoritib berilgan.

ANNONATION

The final qualification work analyzes the concept, main features of the activities of the inspector of prevention of crimes against sexual freedom, the norms governing these activities and the practice of their application, and develops proposals and recommendations for improvement.

In addition, a practical analysis of the activities of the inspector for the prevention of sexual crimes and procedural documents, as well as the existing problems and shortcomings in the activities of the inspector for the prevention of sexual freedom, as well as a number of proposals to address these problems and shortcomings. The experiments were studied and analyzed on the basis of the legislation of the Republic of Uzbekistan and a number of suggestions and comments were made. Using the above aspects, the directions for improving this activity are highlighted.

Mavzuning dolzarbligi: "Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash – amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir".

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, turli tahdid va tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, xususan, jamiyatda

ayollarga nisbatan jinsiy tajovuzlar bilan bog‘liq jinoyatlar profilaktikasini samarali tashkil etishning ma’naviy, huquqiy va institutsional asoslari yaratilmoqda.

. Mazkur qonun hujjatlari talablari asosida inson huquq va erkinliklarini, manfaatlarini ta’minlash, ularni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek ularni har qanday ko‘rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish bo‘yicha respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, O‘zbekiston «Yoshlar ittifoqi» kabi maxsus institutlar tashkil etilib, ularning faoliyati rivojlantirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘irisida”gi Qonunining 3-moddasida huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar tushunchasi, 43,44-moddalarida huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, va huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari belgilab berilgan. Bugungi kunda joylarda huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini keng ko‘lamda qo‘llash orqali fuqarolarning xavfsizligini taminlashda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Mamlakatimizning qonun hujjatlarida «ayollarga va qizlarga nisbatan jinsiy tajovvuz», «ayollarga nisbatan zo‘ravonlik», «ayollarga nisbatan iqtisodiy, jinsiy, jismoniy va ruhiy tajovvuz», «ayollarga nisbatan zo‘ravonlik subyektlari», «jamiyatdagi zo‘ravonlik», «jamiyatda jinsiy erkinlik» kabi atamalarning tushunchasi belgilanmagan. Birgina jinoyat huquqiy doirada jinsiy erkinlik nima ekanligi va uning buzilishiga doir tushunchalar, javobgarlik shakllari ko‘rsatilgan. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar deganda to‘g‘ridan to‘g‘ri jismoniy yoki psixik ta’sir ko‘rsatish va bunday ta’sir etish orqali tahdid qilishni tushunish mumkin. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning paydo bo‘lishida ularning motivi spirtli ichimlik tasiridagi shaxsda kutilmaganda xushyor odamda esa uzoq vaqt mobaynida shakllanganligi va qulay fursat kelishi kutilishi bilan xatarlidir. Ruhiy xolati buzilgan odam tomonidan to‘satdan paydo bo‘lgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qilmish sodir qilingan taqdirda shaxsning badaniga og‘ir shikast yetkazish yoki odam o‘ldirish jinoyatlari sodir etilishi mumkin. kutilmaganda paydo bo‘lgan qasdning ko‘rinishi sifatida affekt holatidagi qasdni o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarga ijtimoiy-psixologik jihatdan qaraydigan bo‘lsak, u birmuncha murakkab hodisadir. Agarchi, jinsiy zo‘ravonlikning rang-barang turlari mavjud bo‘lib, qandaydir his-tuyg‘ular orqali ham vujudga kelishi muki. Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning oldini olish ularga huquqiy yordam ko‘rsatilishini taminlash maqsadida 2019 yil 2 sentyabr “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” O‘z.Res. qonuni tadbiiq etildi. Ushbu qonunda yuridik adabiyotlarda aniq yoritilmagan ayrim tushunchalar boyitildi. Xususan:

Jinsiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash.

Zo‘ravonlik xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).

Aynan ushbu qonun hujjatida Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasidagi vakolatlari keltirilgan:

Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘radi, xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan va ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam asosda profilaktika ishlarini olib boradi;

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilganligi yoki sodir etilishi tahdidi mavjudligi to‘g‘risidagi murojaatlarni ko‘rib chiqadi;

Tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga rasmiy ogohlantirish beradi;

Himoya orderini beradi;

Zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘radi;

Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Profilaktika inspektorlari o‘z faoliyatlarini huquq tartibot maskanlarida olib boradilar. Ularga huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikni oldini olish borasida quyidagi vakolatlari berilgan:

Qishloqlar, ovullar va mahallalardagi kriminogen vaziyatni, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o‘rganadilar, shuningdek o‘rganish natijalari bo‘yicha yuqori turuvchi ichki ishlar organlariga tegishli ma’lumot va takliflarni taqdim etadilar;

Huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo‘yish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktika ishlarini amalga oshiradilar;

O'rnatilgan tartibda profilaktik hisobga olishni, shu jumladan, huquqbuzarliklar, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbuzarliklardan jabrlanganlar hisobini yuritadilar;

Aholi bilan muntazam ravishda mavjud muammolarni o'rganish va ularni hal etishning maqbul yo'llarini aniqlashga qaratilgan uchrashuvlar o'tkazib boradilar;

Izlanishlarning ko'rsatishicha, jinoyatchi shaxslarning ko'pchiligi spirtli ichimliklarni yoshligidan iste'mol qilishni o'rgangan hamda uning ta'sirida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etishgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, hayotda ham aynan ushbu toifadagi shaxslarda jinoyat sodir etishga moyillik yuqori bo'lib, ular tomonidan sodir qilingan jinoyatlar tarkibida shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi turli darajadagi tan jarohati yetkazish holatlari ko'p uchrashi tabiiy xol.

Sirtli ichimlik shaxsning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyalar sodir etilishini taqozo qiluvchi kriminogen omil hisoblanadi. Shu sababdan, jamiyatda tajavuzkorlik sodir qilgan shaxslar kriminogen xususiyatga ega bo'lishadi.

Ayolarga va qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir qilgan shaxslar ko'p hollarda spirtli ichimliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilishi natijasida og'ir turdagi qilmishlarni ham sodir qilishadi. Sodir qilingan qasddan odam o'ldirishning 39%, qasddan badanga shikast yetkazishning 47%, bezorilikning 56% bevosita mastlik natijasida sodir qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish jarayonida avvalo, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etikishi sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, ularni barvaqt oldini olish maqsadga muvofiq.

Shuningdek jinsiy erkinlikka qarshi kurashishda profilaktika inspektorlari o'z hududa huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar, jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar hamda jinsiy jinoyatlar sodir etilishiga imkon yaratadigan tashlandiq va chekka turar joylar shuningdek qurilishi tamomlanmagan uylarni aniqlab, ularni nazorat qilishi va doimiy ravishda tekshirib turishlari lozim hisoblanadi. Bundantashqari profilaktika inspektorlarini hududamaktab, kollej va litseylarda jinsiy erkinlikka qarshitarg'ibot-tashviqotishlarini doimiy ravishda olib borishlari bu huquqbuzarlik va jinoyatlarning odiretilish xavfini kamaytiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil
2. Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16- sentabr "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun

3. 2014-yil 14-may 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27 son “jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi
4. 2021-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
6. “Huquqbuzarlilar profilaktikasito‘g‘risida” gi qonun.2014-yil 14-may.
7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
8. O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risigi kodeksi